

O'ZBEKISTONDAGI SIYOSIY JARAYONLAR DINAMIKASI SAYLOVLAR MISOLIDA

Asrorov Zafar Husniddin o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Ijtimoy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada. O'zbekiston Respublikasida saylov tizimi va qonunchiligining shakllanishi hamda O'zbekiston Respublikasida prezidentlik, parlament va mahalliy kengashlarga saylovlar o'tkazish tartiboti haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Saylov tizimlari: mojaritar, proporsional, aralash saylov tizimlari. saylov kodeksi, prezidentlik saylovlari, parlament saylovlari, mahalliy kengashlar saylovlari, siyosiy partiyalar.*

Saylov - ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri.

(1-qism) O'zbekiston Respublikasida siyosiy manyovrlarga boy holda o'tkazilgan prezidentlik saylovlari tendensiyasi.

O'zbekiston Respublikasi suverenitetiga erishganidan buyon yetti marotaba davlat rahbari maqomi uchun saylovlar bo'lib o'tdi.

Dastlabki prezidentlik saylovi 1991 yil 29 dekabrda bo'lib o'tgan. Bu saylov g'olibning raqibi nisbatan eng yuqori ovoz olgani bilan tarixda qolgan. O'shanda Islom Karimovga raqiblik qilgan «Erk» partiyasi nomzodi Salay Madaminov (Muhammad Solih) rasman 12,5 foiz ovoz to'plashga muvaffaq bo'lgani e'lon qilingan. Qolaversa, bu Xalq demokratik partiyasi nomzodi sifatida saylovda qatnashgan O'zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov nisbatan eng kam ovoz olgan saylov bo'lgandi – 86 foiz ovoz.

1991 yilgi saylovlardan keyingisi 1996 yilda bo'lib o'tishi kerak edi. Ammo 1995 yil 26 mart kuni o'tkazilgan referendumda 99,6 foiz ovoz bilan Islom Karimovning prezidentlik vakolatlari 2000 yilga qadar uzaytirilgan.

2000 yilning 9 yanvarida bo'lib o'tgan saylovlarda davomat bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich qayd etiladi – 95,9 foiz. Saylovda Islom Karimov O'zbekiston tarixidagi prezident saylovlarida eng yuqori ko'rsatkich – 91,95 foiz ovoz to'plagani bilan yodda qolgan. U o'shanda yangi tuzilgan (va tez orada faoliyatini to'xtatgan) «Fidokorlar» partiyasi nomzodi sifatida ishtirok etgandi.

Mazkur saylovda amaldagi prezidentga yagona raqib bo'lgan XDP nomzodi Abdulhafiz Jalolov 4,71 foiz ovoz yig'adi. Bu jarayondagi yana bir qiziq jihat –



Abdulfafiz Jalolov saylov jarayonida mahalliy va xorijiy OAV qarshisida Islom Karimovga ovoz bergani va amaldagi prezident siyosatini yoqlashini bildirgandi.

2002 yil 27 yanvar kuni yana referendum o'tkazilib, unda 91,78 foiz ovoz bilan prezidentlik muddati 5 yildan 7 yilga uzaytiriladi.

2007 yil 27 dekabrda bo'lib o'tgan navbatdagi saylov nomzodlarning ikki nafardan ortiqligi va ular safida ayol kishining ham borligi bilan tarixga kirdi hamda amaldagi davlat rahbari Islom Karimov endi uchinchi bir partiya – O'zLiDeP nomzodi sifatida ishtirok etdi.

Saylovchilarning 90,6 foizi qatnashgan bu jarayonda Islom Karimov 88,1 foiz ovoz bilan g'olib bo'ldi. Uning eng yaqin raqibi Asliddin Rustamov 3,17 foiz (XDP), Dilorom Toshmuhammedova 2,9 foiz («Adolat» SDP), Akmal Saidov esa 2,85 foiz ovoz to'plashga muvaffaq bo'ladi.

Yana bir ahamiyatli jihat – Akmal Saidov bu saylovda biror partiya vakili sifatida ishtirok etmagan, u Saylovchilar tashabbuskor guruhi nomzodi bo'lgan.

2011- yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Unga ko'ra, Prezidentning vakolat muddati 7 yildan 5 yilga qaytarildi.

2015 yilning 29 martida bo'lib o'tgan navbatdagi saylovlarda ham prezidentlikka 4 nafar nomzod ilgari surildi. O'ziga xos tomoni – bu saylovlar mag'lub bo'lgan bir nomzodning ikkinchi marta ishtiroki bo'lgan, ya'ni endilikda «Milliy tiklanish» partiyasi vakiliga aylangan Akmal Saidov bu siyosiy jarayonda ham ishtirok etgan.

91,08 foiz saylovchilar (18,9 mln) qatnashgan bu saylov natijalariga ko'ra Islom Karimov 17 122 597 saylovchi ovozi bilan 90,39 foizlik natija ko'rsatgan va prezidentlik maqomini saqlab qolgan. Akmal Saidov 3,08 foiz ovoz bilan ikkinchi o'rinni egallagan. XDP nomzodi Hotamjon Ketmonov 2,92 foiz ovoz to'plashga muvaffaq bo'lgan. To'rtinchi nomzod, shu paytga qadar eng past ko'rsatkich qayd etgan Narimon Umarovni («Adolat» sotsial-demokratik partiyasi vakili) faqat 389 024 saylovchi qo'llagan – u 2,05 foiz ovoz jamg'ara olgan.

Islom Karimovning o'limidan keyingi jarayonlarni ko'pchilik eslaydi. Prezident davlatni boshqarish qobiliyatini yo'qotsa, uning vakolatini bajarishi kerak bo'lgan Senat raisi Nig'matilla Yo'ldoshev bu vakolatni zimmasiga ololmasligini bildiradi. Shundan so'ng shu paytga qadar bosh vazir bo'lib kelgan Shavkat Mirziyoyevga O'zbekiston Respublikasi prezidenti vazifasini bajaruvchi maqomi beriladi va u 2016 yil 8 sentabridan 14 dekabrga qadar «v.b.» qo'shimchasi bilan faoliyat ko'rsatadi.

2016 yil 4 dekabr kuni O'zbekistonda hisob bo'yicha beshinchi prezidentlik saylovlari bo'lib o'tadi va unda davomat 87,73 foizni tashkil etadi. 4 nafar nomzod kurashgan bu saylovlarda O'zbekiston liberal-demokratik partiyasidan nomzod bo'lgan Shavkat Mirziyoyevni 88,61 foiz, Xalq demokratik partiyasi vakili Hotamjon Ketmonovni 3,73 foiz, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan Narimon Umarovni 3,46 foiz, «Milliy tiklanish» partiyasidan Sarvar Otamurotovni 2,35 foiz saylovchilar qo'llaydi.



Navbatdagi saylovlar 2021 yilning 24 oktyabrida o'tkazildi. Bu saylovlarning o'ziga xos jihati 5 nafar nomzod kurashga kirgani va ro'yxatdan o'tgan har bir partiya o'z vakiliga ega bo'lgani bo'ldi.

Amaldagi prezident Shavkat Mirziyoyev O'zLiDeP partiyasi vakili sifatida ishtirok etgan bu saylovda u 80,01 ovoz jamg'argani e'lon qilindi. Qolgan nomzodlar - Maqsuda Vorisovani 6,6 foiz (XDP), Alisher Qodirovni 5,5 foiz («Milliy tiklanish»), Narzulla Oblomurodovni 4,1 foiz (Ekologik partiya), Bahrom Abduhalimovni 3,4 foiz («Adolat» SDP) saylovchilar qo'llagani ma'lum bo'ldi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendum asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahrirda qabul qilindi. Unga ko'ra prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga uzaytirildi.

2023- yil 9-iyul kuni yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiya asosida O'zbekistonda muddatidan avval prezidentlik saylovlari o'tkazildi.

Mazkur saylov natijalariga ko'ra, O'zLiDeP va Milliy tiklanish demokratik partiyasining o'zaro kaolitsiyasi asosida ko'rsatilgan nomzod amaldagi prezident Shavkat Mirziyoyev 87,05% ovoz oldi.

Qolgan nomzodlarning natijalari quyidagicha:

«Adolat» SDPdan nomzod Robaxon Mahmudova — 4,43 foiz; XDPdan nomzod Ulug'bek Inoyatov — 4,02 foiz; Ekopartiyadan nomzod Abdushukur Hamzayev — 3,74 foiz. Saylovda davomat 79,8 foizni tashkil etgan.

Mazkur muddatidan avval o'tkazilgan prezidentlik saylovlari xalqaro kuzatuvchilar hamda OAV vakillari tomonidan noteng raqobat asosida o'tkazildideb baholandi ya'ni amaldagi prezident qolgan nomzodlarga nisbatan mutloq katta imkoniyat va ustunlikga ega bo'ganligi takidlandi.

(2- qisim) O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan parlament saylovlari: parlamentni “Xalq uyi” maqomidan “Ham fikrlar uyi”ga aylanishi.

O'zbekiston Respublikasi parlamenti faoliyatini shartli ravishda to'rtta davrga bo'lib tahlil qilish mumkin.

Birinchi davr: (1990-1994)

O'zbek parlamenti tarixiga nazar soladigan bo'sak 1990-1994- yillarda parlament Oliy Kengash nomi bilan atalib tarkibi 150 deputatdan iborat bo'lgan.

Ikkinchi davr: (1995-2004)

1995-2004-yillarda Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan saylangan deputatlar tarkibida Xalq demokratik partiyasidan, «Adolat» sotsial-demokratik partiyasidan, «Vatan taraqqiyoti» partiyasidan, «Milliy tiklanish» partiyasidan deputatlar bo'lib, ilkbor parlament fraksiyalari tashkil etildi.

Uchinchi davr: (2005-2024)

2005-yildan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi. Bu 2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan referendum va

shu asosda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar asosida amalga oshirildi.

Parlamentda 250 kishi, jumladan, Quyi palata - Qonunchilik palatasida 150 deputat, Senatda 100 nafar senator faoliyat ko‘rsatadi. Senatga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan, jami 84 kishi saylanadi. Prezident tomonidan tayinlanadigan 16 nafar elyurtda obro‘ e‘tibor qozongan kishilar Senatning a‘zosi bo‘lishadi.

To‘rtinchi davr: (2024-yildan boshlanadi)

2024 - yilning 26-iyul kuni Markaziy saylov komissiyasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 128-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda oktyabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkazilishi belgilangan mazkur normaga muvofiq Parlament va mahalliy kengashlarga o‘tkazilishi belgilangan saylovlarni 2024-yil 27-oktyabr kuni o‘tkazish belgilandi va saylov kompaniyasiga start berildi. Mazkur saylovlar O‘zbekiston Respublikasi Parlamentarizimi tarixida mutloq yangi aralash saylov tizimi asosida o‘tkazilishi takidlandi. Jumladan, 2023-yil 18-dekabr kuni qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bilan Saylov kodeksi va amaldagi yettita qonunga saylov va referendumni tashkil etish hamda o‘tkazish tartibini respublika siyosiy hayotida amalga oshirilgan tizimli islohotlar natijalariga, siyosiy-huquqiy madaniyati yuksalib borayotgan xalq talablariga, shuningdek, rivojlangan demokratik huquqiy davlatlarning ilg‘or amaliyotiga uyg‘unlashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Saylov kodeksiga kiritilgan yangi normalarga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi, ya‘ni majoritar va proporsional saylov tizimi asosida o‘tkazish belgilandi. Zero, bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida sinovdan muvaffaqiyatli o‘tgan, saylovchilarning xohish-istaklari, talablariga to‘la javob beradigan, saylovni aholi uchun eng maqbul shaklda tashkil etish va o‘tkazish tartiblari hamda saylov tizimlari mavjud. Ular, ayniqsa, aralash saylov tizimidan samarali foydalanib kelmoqda. Shu sababli Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini aralash saylov tizimi asosida o‘tkazish tartibi belgilangan.

Aralash saylov tizimi

Aralash saylov tizimi o‘zida ikkita — proporsional va majoritar saylov tizimini uyg‘unlashtirgan. Unda vakillik organidagi deputatlik o‘rinlarining bir qismi deputatlikka nomzodlarning partiya ro‘yxatiga muvofiq siyosiy partiyalarga berilgan



ovozlarga mutanosib ravishda, ikkinchi qismi esa bevosita siyosiy partiya tomonidan bir mandatli saylov okruglaridan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarga berilgan ovozlar natijasiga ko'ra taqsimlanadi.

Mamlakatimizda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining joriy yil oktyabrda rejalashtirilgan saylovi ham aynan aralash saylov tizimi asosida o'tkaziladi. Bunda Qonunchilik palatasining 75 deputati avvalgidek bevosita bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 deputat siyosiy partiyalarning saylovda olgan ovozlari soniga proporsional tarzda, partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxati bo'yicha saylanadi.

Majoritar saylov tizimi bo'yicha siyosiy partiya bir mandatli saylov okruglarining har biridan bittadan, jami 75 ta deputatlikka nomzodni ko'rsatish huquqiga ega. Proporsional saylov tizimida yagona saylov okrugi bo'yicha siyosiy partiya tomonidan taqdim etilgan deputatlikka nomzodlarning ro'yxatiga kamida 75, ko'pi bilan 100 nafar nomzod kiritilishi lozim.

Saylov kodeksi talablariga muvofiq, partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu ro'yxatga kiritilishi mumkin emas. Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro'yxatiga kiritiladi. Bir mandatli saylov okruglari bo'yicha ko'rsatilgan nomzodlar ham partiya ro'yxatiga kiritilishi mumkin emas.

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi. Ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek, partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini (avval bu miqdor o'ttiz foiz edi) tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim. Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga aralash saylov tizimi bo'yicha saylov o'tkazilishi munosabati bilan har bir saylovchiga saylov kuni majoritar saylov tizimi bo'yicha bitta, proporsional saylov tizimi bo'yicha ham bitta, jami ikkita saylov byulleteni beriladi.

Bu yerda quyidagilarga alohida e'tibor berish lozim:

— majoritar saylov tizimida: bir mandatli saylov okruglari bo'yicha o'tkaziladigan saylovda saylov byulleteniga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlarning ism-sharifi kiritilgan bo'ladi;

— proporsional saylov tizimida: Qonunchilik palatasi deputatlarining yagona saylov okrugi bo'yicha o'tkaziladigan saylovda saylov byulleteniga saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning nomi kiritiladi.

Saylov byulletenini to'ldirishda saylovchi mustaqil ravishda qaror qabul qiladi, o'z xohish-irodasini erkin ifoda etadi, shu tariqa o'zi ma'qul deb topgan deputatlikka nomzodni yoki siyosiy partiyaning nomini yoqlab ovoz beradi.

Ma'lumot o'rnida :

1) Majoritar saylov tizimi davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat vakillik organlarini (parlament, xalq deputatlari mahalliy kengashlari, mahalliy o'zini o'zi



boshqarish organlari va boshqalar), shuningdek, davlat rahbarini saylash uchun o'tkaziladigan saylov tizimi bo'lib, unda, asosan, bir mandatli saylov okrugi bo'yicha ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko'proq ovozi olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Kam ovoz olgan nomzodlar uchun berilgan saylovchilar ovozi inobatga olinmaydi.

2) Proporsional saylov tizimi xalqaro amaliyotda mavjud saylov tizimlaridan biri bo'lib, majoritar saylov tizimidan bir asr keyin vujudga kelgan. Saylov proporsional tizim asosida o'tkazilganda, deputatlik mandatlarini, ya'ni vakillik organida mavjud deputatlik o'rinlari siyosiy partiyalar tomonidan shakllantirilgan deputatlikka nomzodlar ro'yxatlari uchun siyosiy partiyalarga berilgan ovozlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Majoritar saylov tizimidan farqli o'laroq, saylovchi bevosita deputatlikka nomzod shaxsga emas, balki saylovda ishtirok etayotgan, deputatlikka nomzodlar ro'yxatini taqdim etgan siyosiy partiyaga ovoz beradi.

Xulosa qilib aytganda, aralash saylov tizimi jamiyatda saylovchilarning siyosiy-huquqiy ongini yuksaltirish, ijtimoiy- siyosiy faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Zero, saylovchi nafaqat nomzodlarning shaxsi, balki dasturlari, g'oyalari, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalq turmushini yanada farovonlashtirish bo'yicha ilgari surayotgan takliflari bilan ham yaqindan tanishadi, o'rganadi, ularni real hayotda nechog'liq tatbiq etish imkoniyatlari mavjudligini baholaydi. Shundan so'ng muayyan qarorga keladi hamda o'zi lozim topgan nomzodni va siyosiy partiyani qo'llab-quvvatlaydi.

Aralash saylov tizimida siyosiy partiya larning mas'uliyati yanada ortadi. Qaysi siyosiy partiya o'z dasturi orqali maqsadlari, jozibador g'oyalarini ifoda etib, ularni ro'yobga chiqarish uchun real imkoniyatlarga ega ekaniga xalqni ishontira olsa, buning uchun munosib harakat qilsa, aholi tomonidan kengroq qo'llab-quvvatlanishga, saylovchilarning ko'proq ovozi olishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. 25.06.2019. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risidagi qonun
4. Gabriel Almond "Siyosiy madaniyat" (1963y)